



## SO‘FI OLLOYORNI O‘GANISH XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR

**Doniyorova Mohinur Tolliboy qizi,**  
*JDPU o‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi doktoranti*

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.15207273>

***Annotatsiya.** Maqola So‘fi Olloyorning hayoti, ijodi va ilmiy merosi haqida batafsil tahlilni taqdim etadi. Unda shoir va mutafakkirning tug‘ilgan yili, vafot sanasi va uning faoliyati haqida turli manbalarda keltirilgan fikrlar ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotchi, asosan, So‘fi Olloyorning “Sabot ul–ojizin” asarining madaniy ahamiyatiga, uning turli mamlakatlarda e‘tirof etilishiga e‘tibor qaratgan. Maqolada shuningdek, shaxsning ilmiy, diniy va axloqiy faoliyatiga oid muhim ma‘lumotlar berilib, uning nafaqat o‘zbek, balki tojik adabiyoti tarixidagi o‘rni, tasavvuf ilmiga qo‘shgan hissasi haqida so‘z yuritiladi. Tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar va ularning tahlili orqali So‘fi Olloyorning hayoti va merosi haqida yangi ilmiy xulosalar chiqarish imkoniyati ko‘rsatiladi. Maqola ilmiy izlanishlar va tarixiy tafsilotlarning qanday shakllanishi, ularni qayta baholash zarurligi haqida muhim fikrlarni o‘z ichiga oladi.*

***Kalit so‘zlar:** So‘fi Olloyor, adabiyot, ilmiy meros, "Sabot ul–ojizin", diniy axloqiy asarlar, tasavvuf, mutafakkir, tarixiy manbalar, tug‘ilish sanasi, vafot sanasi, Tojiddin Yolchig‘ul, Ahmad Yassaviy, ilmiy tadqiqotlar, o‘zbek adabiyoti, diniy ilmlar, axloqiy ta‘limot, madaniy meros.*

Ening ma‘naviyatini yuksaltiradigan, kamolga etkazadigan eng kuchli vositalardan biri adabiyotdir. Mustaqillik sharofati bilan millatga ma‘naviy barkamollik baxsh etuvchi Hadisi shariflar, Ahmad Yassaviy, Huvaydo, So‘fi Olloyor kabi o‘nlab ijodkorlarimizning asarlari dasturlarga kiritildi. Ularni chuqur o‘rganib, yoshlar ongiga singdirish yo‘lga qo‘yildi. Binobarin, sovet tuzumi davrida diniy–mistik shoir tamg‘asi ostida So‘fi Olloyorning hayoti va faoliyatini o‘rganish man etilgani hamda ijodi qoralangani sababli ulug‘ vatandoshimiz ijodiga o‘z vaqtida xolis baho berilmagan edi. To‘g‘ri, ayrim adabiyotlarda, xususan, Vohid Abdullayevning “O‘zbek adabiyoti tarixi” darsligida, Sadriddin Ayniy “Namunai adabiyoti tojik” kitobida So‘fi Olloyor hayoti va ijodi haqida qisqacha ma‘lumotlar berilgan[1;171].

Keyingi yillarda M.Xanjar, N.Niyozova, I.Suvonqulov, N.Allayorova, Sh.Sirojiddinov kabi tadqiqotchilarning So‘fi Alloyor hayoti va ijodini ilmiy yoritishga qaratilgan ishlari yuzaga keldi. Avvalo, barcha tadqiqotchilar Tojiddin Yolchig‘ul o‘g‘liga e‘tibor qaratadilar. Mazkur shaxs h. 1211 yilda (1796.06.07.–1797.25.06.) “Sabot ul–ojizin” asariga sharh yozadi va uni “Risolai aziza” deb ataydi. “Sabot ul–ojizin” asari So‘fi Olloyorning eng mashhur asaridir. U Saudiya Arabistoni, Pokiston, Turkiya kabi ko‘p chet mamlakatlarda ham chop etilgan. Ikki



marta sharh yozilgan. Bu asar dunyo xalqdarida katta qiziqish uyg‘otganini ko‘rsatadi.

"Sabot ul–ojizin" madaniy merosimizda muhim o‘rin tutgan diniy–axloqiy va didaktik asar. U uzoq yillar XX asr boshlarigacha O‘rta Osiyo maktab, madrasalarida darslik sifatida qo‘llanib kelingan.

Tojiddin Yolchig‘ul o‘g‘lining So‘fi Alloyor haqidagi ma‘lumotlari XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlaridagi ko‘plab noshirlarni ham chalg‘itib yuboradi. Bizning davrimizdagi ayrim tadqiqotchilar uning ma‘lumotlariga judayam ishonib bo‘lmaslikni allaqachon tushunib yetgan. Shunga qaramay, uning tug‘ilgan yili bilan bog‘liq yakuniy ilmiy xulosalarda asosan, yana Tojiddin Yolchig‘ul o‘g‘li aytganlariga tayanish davom etmoqda. Biroq, natija bir xil emas. So‘zni So‘fi Alloyorning oxirgi manzili – Surxondaryodan boshlaymiz. “Vaxshivor va So‘fi Allohoyor” risolasi muallifi Meliqul Xanjar bu haqda shunday deydi: “So‘fi Allohoyor 1625 yilda (melodiy hisob bilan) ana shu Minglar qishlog‘ida tug‘ilgan”[2;8]. So‘fi Olloyorning tug‘ilgan yili manbalarda zikr etilmagan. Vafot etgan yili bizgacha yetib kelgan bir necha ta‘rixlardan ma‘lum. Shuningdek, Inoyatulla Suvonqulovning shaxsiy kutubxonasidagi “Sabot ul–ojizin”ning nusxasida “Ta‘rix vafoti Eshon So‘fi Ollohoyor alayhirrahmai Abu Xanifai vaqt ast” (Zamonaning Abu Hanifasi Eshon So‘fi Ollohoyor alayhirrahma vafotining ta‘rix) ostida quyidagi ta‘rix keltirilgan

Abu Hanifai vaqt ast So‘fi Olloyor,  
Xudoy dod bo o‘qoli holro bisyor oro.  
Har onki omada ta‘rix favti o‘pursand,  
Bigu tu: qofu jim u g‘aynu lomro bishmorro![3;13].

Ya‘ni:(So‘fi Olloyor zamonaning Abu Hanifasidir, Hudo unga qol (diniy ilmlar) va hol (sufiylik)dan ko‘p bahramand etgandir. Har goh kelib uning vafoti sanasini so‘rasalar, Aytgil: “Sen qof, jim, g‘ayn va lomni sana!”.

Tarixda ko‘rsatilgan sanaga ishonish ma‘qulroq. Bu shoir vafotining hijriy sanasi bo‘lib, milodiy 1721 yilga to‘g‘ri keladi. Agar uning tug‘ilgan yili haqiqatan 1644 yil bo‘lsa, u milodiy hisobda 77 yil, hijriyda 79–80 yil umr ko‘rgan bo‘ladi. Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, adabiyotshunos I.Suvonqulov: “So‘fi Allohoyor tug‘ilgan sanasi Tojuddin Yolchig‘ul o‘g‘lining “Risolai Aziza” (1797 y.) kitobida ta‘kidlanishicha, 1644 yilga to‘g‘ri keladi”, deb yozadi[4;100].

Sh.Sirojiddinov esa bu sanani butunlay boshqacha ko‘rsatadi: “...Tarix moddalaridan 1133 yil hosil bo‘ladi. Fahmiyning tazkirasida yanglish hijriy 1136 yil ko‘rsatilgan. Fikrimizcha, tarixda ko‘rsatilgan sanaga ishonish ma‘qulroq. Agar So‘fi

**“O‘ZBEK FILOLOGIYASI:  
MUAMMO VA YECHIMLAR”  
mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani**



Allohyorning hijriy yil hisobi bilan 90 yoshda vafot etgani hisobga olinsa, u kishining tug‘ilgan yilini hijriy 1043 yil deb belgilash mumkin. Bu sana milodiyga aylantirilganda 1634 yil hosil bo‘ladi. Ko‘rinadiki, shu davrgacha e‘lon qilingan tadqiqotlarda ko‘rsatib kelinayotgan 1644 yil sanasidan ko‘ra haqiqatga yaqin deb o‘ylashga asos bor”[5;12]. Mazkur sanalarning qay biriga ishonishimiz kerak? Bu muammoni hozirgacha amalga oshirilgan tadqiqotlar va yozilgan maqolalar hal etib berolmaydi. Endi mustaqil holda o‘tmishga kirib borishdan o‘zga choramiz qolmaydi[6;15-18]. Dastlab, uning yoshiga e‘tibor qaratamiz. Tadqiqotchilar u 90 yil umr ko‘rgan deyapti. Bu ma‘lumot qanday paydo bo‘lib qoldi? Uni ham faqat Tojiddin Yolchig‘ul o‘g‘lida uchratamiz. Biz mazkur muallifdan boshqa manba axtaramiz. Nihoyat, boshqa tarixiy manbalarda ham So‘fi Allohyorning vafot etgan vaqti bitilgan tarixlar va sanalarga duch keldik. Ulardan biri Sadri Ziyo qalamiga mansub “Asomi kutub” asarida uchraydi. Muallif uni h. 1136 yili Vaxshivorda shayx Zohid Vaxshivoriy qabristoniga dafn etilgani haqida xabar beradi. U Vaxshivorda xonaqoh ham qurdirgan ekan. Bu sanani Abdumutallib Fahmiy ham tasdiqlaydi. Nosiriddin Hanafiy uning Mavlona Zohiddan yarim farsax masofada mangu makon topganini ta‘kidlaydi. Ko‘rinib turibdiki, So‘fi Allohyor tarjimai holiga oid muammolar ilgaridan mavjud ekan. Mana sizga ikki xil tarix va ikki xil sana. Biroq, ayrim mualliflar uning h. 1136 yilda vafot etganini raqamlarda yozib ketganini ham aytib o‘tdik. Faqat, bu ma‘lumotlarning orasidan xatolarini olib tashlashimiz qoldi. So‘fi Allohyor vafoti sanasini ifodalovchi “haddi xushvor” va “haddi vaxshivor” jummalari “Ey, haddi vaxshivor” tarixining buzilgan shakli ekani ko‘rinib turibdi. Ko‘chiruvchi va noshirlar bu o‘rinda xatoga yo‘l qo‘yganlar. Endi bigo‘, tu “qof, jimu g‘aynu lomro” bishumor, tarixi ustida bosh qotirib ko‘raylik. Abjadda u h. 1133 yilni hosil etmoqda. Tadqiqotchi shu sanani ishonchliroq deb qabul qilyapti. Agar biz uni shunday deb qabul qilsak, bir muammo paydo bo‘lyapti. Ya‘ni, Farhodbiy voqeasi. Ular So‘fi Allohyor bilan aka–uka edi. Farhodbiy ma‘lum muddat ashtarxoniy Abul Fayzxon davrida otaliq lavozimida bo‘ladi va saroydagi o‘zaro kelishmovchiliklar oqibatida h. 1134 yilda qatl etiladi. Bu sana milodiyda 1721.21.10.–1722.11.10. yillarga to‘g‘ri keladi. Demak, So‘fi Allohyor h. 1133 yilda vafot etgan bo‘lishi mumkin emas. U holda qanday qilib, akasining o‘limiga marsiya yoza oladi. Balki, Bigo‘, tu qof, jimu g‘aynu lomro bishumor tarixini “Bi” go‘ tu, “qof, jimu g‘aynu lom”ro bishumor o‘qish va Sen “be” de, “qof, jimu g‘aynu va lom”ni sana deb tarjima qilish kerakdir. Shunda bu tarix h. 1135 yilni beradi va har qalay ikki tarix bir biriga yaqinlashib qoladi.



Nihoyat, So‘fi Olloyorning tarjimai holiga oid quyidagicha qisqagina xulosaga keldik. Demak, manbalarga tayanadigan bo‘lsak, oldingi tadqiqotlar va adabiyotlarda ko‘rsatilayotgandek u milodiy 1625, 1644 yoki 1634 yilda ham emas, 1662–1663 yilda tug‘ilib, 1724 yili oltmish bir (hijriyda oltmish uch) yoshida vafot etgan bo‘ladi. Manbalarda So‘fi Olloyor tug‘ilgan joy nomi haqida ham chalkash fikrlar mavjud. Chunki, ko‘plab nusxalarda chop etilgan toshbosma nashrdagi tarzida keltirilgan atamani “Minglon”, “Myankalon”, “Miyankalon” tarzida ham o‘qish mumkin. Ba’zi tazkiralarda esa So‘fi Olloyor Miyonkoliy deb ham zikr etilgan. Tojuddin Yolchiquilning sharhida So‘fi Olloyorni no‘g‘ay millatidan deb zikr qilinadi. Zotan, So‘fi Olloyorning no‘g‘ay emasligi ayon bo‘lgan. Mutafakkir biror–bir asarida o‘zini no‘g‘ay deb aytmagan, balki O‘tarchi urug‘idan ekanligini ta’kidlagan. U ruboiylarining birida shunday deydi:

Xoliqo! Yo avvalo! Yo oxiro!

Nafsu shayton jonima bo‘ldi balo.

Garchi Olloyor O‘tarchidur yamon,

Qo‘ymag‘il dushman qo‘lig‘a muftalo[7;150].

Malik Elmurodovning “Kattaqo‘rg‘on tarixi: kecha va bugun” kitobida yozilishicha, So‘fi Olloyor Kattaqo‘rg‘ondagi O‘tarchi qishlog‘ida tug‘ilgan. U “Nahripay daryosi yoqasidagi Saripultepe qishlog‘iga tutash bo‘lgan hududda joylashgan”[8;35].

So‘fi Olloyor Kattaqo‘rg‘ondan 50–60 yoshlarda bo‘lganida chiqib ketganligi tadqiqotchilar tomonidan taxmin qilinadi. Bir muncha muddat Qashqadaryo va Samarqand o‘rtasidagi Cho‘nqaymish qishlog‘ida yashab o‘z ta’limotini targ‘ib etganligi ma’lum. Umrining oxirgi yillarini Surxondaryo tog‘ etaklarida, xususan, Vaxshivor mavzesida o‘tkazgan. 1721 yilda shu yerda vafot etgan. Hozirda bu yerda Surxondaryo viloyati “So‘fi Olloyor” jamg‘armasi tomonidan allomaning maqbarasini bunyod etish hamda mazkur makonni ziyoratgohga aylantirish ishlari jadal olib borilmoqda[9;123-126].

Ma’lumki, So‘fi Olloyor zullisonayn adib sifatida o‘zbek va tojik adabiyotlari tarixida munosib o‘rni bor. Ammo shoirlilik uning asosiy fazilati emas. So‘fi Olloyor, birinchi navbatda, yirik ilohiyotchi va faqih, mutakallim olim, “Ahli sunna val-jamo’a” e’tiqodi hamda Imom A’zam Abu Hanifa ta’limotini rivojlantirgan va yangi hayot baxsh etgan buyuk din arbobidir.

So‘fi Olloyordan bir necha asarlar meros qolgan. Bular “Maslak ul–muttaqiyn”, “Sabot ul–ojizin”, “Maxzan ul–mute’in” va “Murod ul–orifin” asarlari bo‘lib,

# “O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



ularning barchasi islom dini aqidasi, fiqhiy masalalar, tasavvuf ilmiga bag‘ishlangan. Olimlar ushbu sirasiga yana “Siroj ul–ojizin”, “Najot ut–tolibin” asarlarini ham kiritadilar. Oldingi ikki asar nazmda bitilgan bo‘lib, biri forsiy, ikkinchisi turkiyda ta’lif etilgan. “Murod ul–orifin” forsiy tilda nasr yo‘li bilan yozilgan bo‘lsa–da, unda she’riy bayon hollari ham uchraydi.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. В.Абдуллаев. Ўзбек адабиёти тарихи. – Т.: Ўқитувчи, 1980. 115–бет, С.Айний. Намунаи адабиёти тожик. Самарқанд, 1925, 171–бет.
2. М.Ханжар. Вахшвор ва Сўфи Оллоёр. (Тарих хусусида ўйлар – эссе). –Термез: Жайхун, 1993.
3. И.Сувонқулов. Сўфи Оллоёр ва унинг адабий аънаналари. Фил.ф.док.илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати, Тошкент, 1997
4. И.Сувонқулов. Маънавият илдилари.–Самарқанд, 2000.
5. Ш.Сирожиддинов. Сўфи Оллоёр илоҳиёти. –Т.: Имом ал–Бухорий халқаро жамғармаси нашриёти, 2001.
6. Абдусаттор Жуманазар.Сўфи Аллоҳёрнинг биографиясига оид айрим мулоҳазалар.Адабиёт кўзгуси.йиллик илмий нашр.–Тошкент,2009, № 11.